



## **TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I**

2023 - yil 26 - iyun

188-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 10-iyundagi 359-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldag“Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini jadal sur’atlarda hal etish hamda aholi farovonligini yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-50-son qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarori hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 10-iyundagi 359-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldag“Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini jadal sur’atlarda hal etish hamda aholi farovonligini yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-50-son qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘srimcha kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarori ijrosi haqida” 2023-yil 10-iyundagi 359-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangihayot tumani hokimining “Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldag“Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini jadal sur’atlarda hal etish hamda aholi farovonligini yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-50-sonli qarori ijrosi haqida 2023-yil 13-fevraldag 81-14-0-Q/23-son qarori ijrosi to‘g‘risida” 2023-yil 15-fevraldag 39-14-220-Q/23-son qarorida:

a) 2-bandи ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Tiklanish taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan Toshkent shahri mahallarining infratuzilmasini rivojlantirish, havo harorati keskin sovib ketishi davrida talafot ko‘rgan

mahallalardagi ichki yo'llar, piyodalar yo'laklari, muhandislik-kommunikatsiya obektlarini ta'mirlash, hamda bolalar sport maydonchalarini qurish, mahalla hududida mikro xiyobonlar tashkil etish, irrigatsiya ishlari, ko'p qavatli uylarning tom va fasad qismlarini ta'mirlash hamda aholi kayfiyati va yashash sifatiga ijobiy ta'sir qiluvchi obodonlashtirish, ta'mirlash va boshqa qurilish ishlari uchun Toshkent shahar hokimligiga 584 milliard so'm miqdorida foizsiz kredit ajratilishi”;

b) 3-bandи ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarori bilan ajratilgan mablag'lar hisobidan Toshkent shahridagi mahallalarga amalga oshiriladigan qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlaridan kelib chiqib mablag' ajratilishi ta'minlansin”.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinososari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**